


**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOTATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023- YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**


Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 141 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 586 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan





Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalarini tomonidan 19 536,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-avgust oylarida 9 685,4 ming so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,0 % ni ko‘rsatmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 18 410,0 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 233,5 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,2 % ga to‘g‘ri keldi.




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*




Yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha

(O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Oltinugurt



Shag'al



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oltinugurt, t.	1 209,0	562,0	- 647,0
Gips, t.	135 622,0	450 694,0	315 072,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	102 410,5	148 051,0	45 640,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 410,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Mazut
2023 68,0 p.	2023 105,9	2023 72,9
2022 72,9	2022 109,8	2022 102,8
2021 64,2	2021 103,3	2021 77,7
O'simlik yog'i (tozalangan)	Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023 166,6	2023 20,3	2023 20,3
2022 64,9	2022 91,8	2022 90,0
2021 90,6	2021 104,9	2021 92,5

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,6 % (2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,5 % (56,3 %), quyi texnologiyali 38,8 % (41,5 %)ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 48,7 % (2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,5 % (2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4 % (2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,0 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,6 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,3 % (2022- yilning yanvar-avgust oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 128,7 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 664,8 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,9 % ga ko'paygan), 3 181,6 ming litr aroq mahsulotlari (11,9 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Mazut, ming t.	53,7	39,1	- 14,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	3 732,0	6 217,6	2 485,6
Paxta tolasi, t	40 750,0	41 094,0	344,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	51 383,0	10 425,2	- 40 957,8
Paxta chigit, t.	58 220,0	69 076,0	10 856,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 88,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 45,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lган ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,4 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 903,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 7,1 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 2 787,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 118,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 211,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 7,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3 448,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 104,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 534,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 104,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 534,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 48,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 110,6 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 9 507,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 107,9 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 157,6 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblar uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 74,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 106,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 767,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 146,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	911,4	1 333,1	421,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	492,6	458,7	- 33,9

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,7 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,5 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 31,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 230,0	12 903,3	673,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln. so'm	392,6	270,6	- 122,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 839,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 19,7 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatida 2 055,6 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 11,2 % ga oshdi va 1 783,7 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 53,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 46,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 111,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 102,7 % ga to'g'ri keldi.


Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlarda ishlataladigan sanoat mahsulotlari.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 839,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oylari mos davriga nisbatan 107,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,7 % ga to'g'ri keldi.



*Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol tovarlarining ulushi*




*yanvar-avgust
o'sish sur'ati, % da*





Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 903,4 ming so‘m bo‘ldi.




*Viloyatida aholi jon boshiga iste’mol
tovarları ishlab chiqarishi hajmi*




Viloyatda nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 783,7 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.




Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi




Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 2 055,6 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi.




Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 550,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,6 % ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,3 % ni tashkil etgan.



*Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi*

